

## GILOS ZARARKUNANDALARIGA QARSHI QO'LLANILGAN KIMYOVIY PREPARATLARNING XO'JALIK SAMARADORLIGI

Z.B.Xolmirzayeva

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti assistenti.*

*Telefon:+998932455750 [zulfizardehkonova@gmail.com](mailto:zulfizardehkonova@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada gilos zararkunandalariga qarshi qo'llanilgan turli kimyoviy guruhlarga mansub kimyoviy preparatlarning xo'jalik samaradorligi haqidagi ilmiy ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** gilos, zararkunanda, Escape, Nurell gold, Nurell ekstra, Karat gold, Dnoks, Aprozleym gold, samaradorlik.

Respublikamizning iqtisodiyotini belgilovchi va katta daromad keltiradigan asosiy sohalardan biri bog'chilik hisoblanib, bu sohani rivojlantirmasdan turib, aholi va sanoatimizning meva mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish mumkin emas [1].

Bog'dorchilik qishloq xo'jaligining serdaromad tarmog'i bo'lib, meva va rezavor mevalar tarkibida inson organizmi uchun zarur bo'lgan glyukozalar, organik kislotalar, oksidlar, moylar, vitaminlar, mineral tuzlar, pektin, fermentlar, kolloidlar va boshqa moddalar mavjud [1].

Bog' va tokzorlardan yuqori hosil olish uchun begona o'tlar, kasalliklar va zararkunanda hasharotlardan himoya qilish zarur hisoblanib, ko'chatlarni qarovsiz tashlab qo'yish, ya'ni begona o'tlar, kasalliklar va zararkunandalarga qarshi o'z vaqtida kurashmaslik, ayanchli oqibatlarini keltirib chiqaradi [2].

2020-2022 yillar davomida Farg'ona vodiysi sharoitidan gilos bog'larida uchraydigan asosiy zararkunandalardan biri olcha shilliq arrakashining lichinkalariga qarshi qo'llanilgan mikrobiologik va turli kimyoviy guruhlarga mansub zamonaviy insektitsidlarning biologik, xo'jalik va iqtisodiy samaradorligini va ishlatish tizimini ilmiy asoslash tadqiqotlarimizning asosiy bosqichlaridan biri bo'lib hisoblandi. Biz bu sohada olcha shilliq arrakashining fenologik rivojlanishini kuzatib, mikrobiologik va kimyoviy himoya qilish vositalari bilan kurash tizimini ishlab chiqdik.

Tadqiqotlarimizda 6 ta nomdagi va turli kimyoviy guruhlarga mansub Escape 20% n.kuk (atsetamiprid), Nurell Gold (Xlorprifos 50%+tsipermetrin 5%), Nurell ekstra (Xlorprifos 50%+tsipermetrin 5%) turli sarf-me'yorlarda, Karat Gold (lyambda-tsigalotrin 5%), Dnoks (imidaklorid 20% + triadimefon 20%), Aprozleym Gold (Emamektin benzoat 5% + Tiametoksam 12,5%) zamonaviy insektitsidlar hamda Helitec mikrobiologik preparati laboratoriya, dala tajribalarida sinovdan o'tkazildi.


O'tkazilgan tadqiqotlarimizda gilos zararkunandalariga qarshi sinab ko'rilgan bir qator insektitsidlarning biologik samaradorligi yuqori bo'lib, ularni amaliy ishlatishga loyiq deb topdik, ammo tadqiqotlarni yakunlash uchun bularning xo'jalik va iqtisodiy samaradorligi o'rganilishi lozim edi. Buning uchun har yili himoya chora-tadbirlari

o'tkazilgan maydonlarda mavsum ohirida mevali daraxtlarning hosildorligi aniqlanib borildi.

Tajribalar zararkunandalarning zararlash darajasi IZMMdan oshgan maydonlarda olib borildi.

2020 va 2022 yillar mobaynida o'tkazilgan tadqiqotlarimizda dominant zararkunandalarning o'rtacha soni hisoblab turildi. Uch yil davomida o'tkazilgan tajribalarimizning xo'jalik samaradorligi, ya'ni saqlab qolingan hosilni aniqlashda har bir variantdan 5 ta daraxtdan bittasi tanlab olinib, ulardan olingan hosildorlikning o'rtacha bir gektarining hosildorligi aniqlandi.

Andijon viloyati bog'dorchilik xo'jaliklarida 2020-2022 yillardagi kimyoviy preparatlarning ho'jalik samaradorligi, hosildorligi alohida hisob etildi. Tajriba natijalariga ko'ra tajriba variantlaridagi preparatlarining turli sarf-me'yorda qo'llanilgan variantda o'rtacha hosildorlik 45,67-57,2 ts/ga.ni, nazoratga nisbatan farq esa 0,67-12,2 ts/ga.ni tashkil qildi (1-rasm).



1-rasm. Tajribada qo'llanilgan kimyoviy preparatlarning xo'jalik samaradorligi Farg'ona vodiysi sharoitida. (2020-2022 yy.)

Shuningdek, andoza variantidagi Nurell Gold preparatining o'rtacha hosildorligi 55,1 ts/ga.ni tashkil etdi, nazoratga nisbatan farq 10,1 ts/ga.ni tashkil qildi. Namangan viloyati bog'dorchilik xo'jaliklarida 2020-2022 yillardagi kimyoviy preparatlarning ho'jalik samaradorligi, hosildorligi alohida hisob etildi. Tajriba natijalariga ko'ra tajriba variantlaridagi preparatlarining turli sarf-me'yorda qo'llanilgan variantda o'rtacha hosildorlik 45,67-57,2 ts/ga.ni, nazoratga nisbatan farq esa 0,7-12,3 ts/ga.ni tashkil.

Andoza variantidagi Nurell Gold preparatining o'rtacha hosildorligi 54,7 ts/ga.ni tashkil etdi, nazoratga nisbatan farq 9,9 ts/ga.ni tashkil qildi(1-rasmga qarang).



Farg'ona viloyati bog'dorchilik xo'jaliklarida 2020-2022 yillardagi kimyoviy preparatlarning ho'jalik samaradorligi, hosildorligi alohida hisob etildi. Tajriba natijalariga ko'ra tajriba variantlaridagi preparatlarining turli sarf-me'yorda qo'llanilgan variantda o'rtacha hosildorlik 45,67-53,7 ts/ga.ni, nazoratga nisbatan farq esa 0,57-12,2 ts/ga.ni tashkil qildi.

Shuningdek, andoza variantidagi Nurell Gold preperetining o'rtacha hosildorligi 55,2 ts/ga.ni tashkil etdi, nazoratga nisbatan farq 10,1 ts/ga.ni tashkil qildi.

Diagramma ma'lumotlaridan ko'rinib turganidek, olcha shilliq arrakashiga hamda gilosning boshqa zararkunandalariga qarshi Nurell Ekstra 55% em.k.-0,7 l/ga Dnoks 40% n.kuk.-0,4 l/ga, Karat Gold 5% em.k. - 0,6 l/ga, preparatlari qo'llanilgan variantlarda har 1 gektar bog'dan o'rtacha 50,55 ts dan 56,00 ts gacha hosil olindi. Shunday qilib tajriba maydonlarimizda hosildorlik 1 gektar bog'dan nazoratga nisbatan Nurell Ekstra-0,7 l/ga 11,0 ts/ga, Dnoks 20% n.kuk.,5 ts/ga, Karat Gold k.e. 8,7 ts/ga hosil saqlab qolindi. Tajribalarimizda foydalanilgan vositalarning aksariyati xo'jalik jihatdan yuqori samarali ekanligidan dalolat beradi.

Escape 20% n.kuk, Nurell Gold 55% em.k., Karat Gold 5% em.k., Dnoks 40% n.kuk. preparatlari va Helitec mikrobiologik preparati gilos bog'larini olcha shilliq arrakashini lichinkalaridan himoya qilishga tavsiya etildi. Shuningdek Nurell ekstra 55% em.k. preparatini 0,7 l/ga sarf-me'yorida kelgusida respublikamizda tarqalgan olcha shilliq arrakashiga qarshi qo'llash uchun Ro'yxat...ga kiritishga tavsiya etildi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Antonova O. Gilosning xalqaro bozordagi o'rni // Shirin meva jurnali. – Toshkent, 2021. №2 – B. 9-11.

2. Matchanov R.D., Yuldashev A.I., Artemev V.P., Kushanov L.A. Bog' va tokzorlarni parvarish qilish, ularni kasallik va zararkunandalardan himoya qilish bo'yicha «AGRIXIM» QK tomonidan yangi qishloq xo'jalik mashinalarini yaratishda olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlanmalari// Respublikada bog'dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish, mahsulot sifati va hosildorligini oshirish omillari: Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent: 2015. – B. 162-168.